I. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023- yil 1- oktabr holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni *(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)* 28 317 taga yetdi, shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 22 296 tani yoki jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 78,7 foizni tashkil qildi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahar (22,3 %), Karmana (15,8 %), Qiziltepa (13,0 %) va Xatirchi (11,5 %) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
(2023- yil 1- oktabr holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		***Faoliyat ko‘rsatayotgan***	
	birlik	***jamiga nisbatan, % da***	***birlik***	***jamiga nisbatan, % da***
Jami	**28 317**	**100,0**	**22 296**	**100,0**
Navoiy sh.	6 324	22,2	4 927	22,0
Zarafshon sh.	1 926	6,8	1 574	7,1
G‘ozg‘on sh.	447	1,6	416	1,9
Karmana t.	4 466	15,8	3 273	14,7
Konimex t.	1 217	4,3	1 019	4,6
Qiziltepa t.	3 686	13,0	2 978	13,4
Navbahor t.	3 011	10,6	2 324	10,4
Nurota t.	1 965	6,9	1 536	6,9
Tomdi t.	830	2,9	678	3,0
Uchquduq t.	1 180	4,2	929	4,2
Xatirchi t.	3 265	11,7	2 642	11,8

Ro‘yxatdan o‘tgan sub‘ektlarning hududlar bo‘yicha ulushi, (% da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning savdo (35,5 %), sanoat (15,3 %), qurilish (6,8 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (12,2 %) sohalariga to‘g‘ri keldi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
(2023- yil 1- oktabr holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		*Faoliyat ko‘rsatayotgan*	
	birlik	*jamiga nisbatan, % da*	*birlik*	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**28 317**	**100,0**	**22 296**	**100,0**
shu jumladan:				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3441	12,2	2529	11,3
sanoat	4329	15,3	3170	14,2
qurilish	1925	6,8	1429	6,4
savdo	10048	35,5	8241	37,0
tashish va saqlash	921	3,3	776	3,5
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1714	6,1	1281	5,7
axborot va aloqa	352	1,2	276	1,2
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	401	1,4	357	1,6
boshqa turlari	5186	18,3	4237	19,0

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi
(2023- yil 1- oktabr holatiga)

11,3 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

14,2 %

Sanoat

6,4 %

Qurilish

37.0 %

Savdo

3,5 %

Tashish va saqlash

5,7 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

1,2 %

Axborot va aloqa

1,6%

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

19,0 %

Boshqa turlar

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotgan sub‘ektlarning ulushi 78,7 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 21,3 foizni tashkil etganligini ko‘rsatmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



2023- yil 1- oktabr holatiga 20 064 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 11 536 ta, xususiy korxonalar 4 860 ta, oilaviy korxonalar – 3 500 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 18 ta, unitar korxona 34 tani va 116 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning tashkiliy- huquqiy shakllari bo‘yicha taqsimlanishi, *birlikda*



2023- yil yanvar- sentabr oylarida jami 3 112 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 92,7 foizni tashkil etdi, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (547 ta), Karmana (478 ta), Qiziltepa (361 ta), Xatirchi (351 ta) tumanlariga, eng kami esa Tomdi (134 ta) tumani va G‘ozg‘on shahar (80 ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 35,8 foiz, sanoatda 17,8 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 14,7 foiz, qurilishda 3,8 foiz, tashish va saqlashda 4,0 foizni tashkil etdi.

2023- yil 1- oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining soni 19 965 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 10,5 foizga kamaydi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining asosiy qismi, ya‘ni 4 300 tasi (jami sub‘ektlarning 21,5 %) Navoiy shahri, 3 002 tasi (15,0 %) Karmana, 2 978 tasi (13,7 %) Qiziltepa, 2 344 tasi (11,7 %) Xatirchi hamda 2 142 tasi (10,7 %) Navbahor tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam faoliyat ko‘rsatayotganlar esa 593 tasi (3,0 %) Tomdi, 879 tasi (4,4 %) Konimex tumanlari, 382 tasi (1,9 %) G‘ozg‘on shahri hissasiga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes sub‘ektlari
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlikda)
(2023- yil 1- oktabr holatiga)

	Jami	*Faoliyat yuritayotgan*	*Faoliyat yurimayotgan*	*2023- yil yanvar-sentabr oylarida yangidan tashkil etilgan*	*2023- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyati tugatilgan*	*1000 kishiga to‘g‘ri keladiga KB sub‘ektlari*
Jami	**25 822**	**19 965**	**5 857**	**3 018**	**1 263**	**18,7**
Navoiy sh.	5 621	4 300	1 321	510	153	26,9
Zarafshon sh.	1 780	1 435	345	216	197	16,3
G‘ozg‘on sh.	412	382	30	79	13	41,5
Karmana t.	4 175	3 002	1 173	462	114	21,7
Konimex t.	1 072	879	193	182	92	23,5
Qiziltepa t.	3 430	2 734	696	354	142	17,0
Navbahor t.	2 815	2 142	673	330	97	17,8
Nurota t.	1 769	1 346	423	189	67	15,1
Tomdi t.	738	593	145	130	37	38,3
Uchquduq t.	1 055	808	247	223	138	20,6
Xatirchi t.	2 955	2 344	611	343	213	11,0

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining hududlar bo‘yicha soni

	2022- yil 1- oktabr holatiga		*2023- yil 1- oktabr holatiga*	
	birlik	*jamiga nisbatan, % da*	*birlik*	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**22 296**	**100,0**	**19 965**	**100,0**
Navoiy sh.	4 911	22,0	4 300	21,5
Zarafshon sh.	1 650	7,4	1 435	7,2
G‘ozg‘on sh.	311	1,4	382	1,9
Konimex t.	879	3,9	879	4,4

davomi

	2022- yil 1- oktabr holatiga		2023- yil 1- oktabr holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan, % da	birlik	jamiga nisbatan, % da
Qiziltepa t.	3 015	13,5	2 734	13,7
Navbahor t.	2 372	10,6	2 142	10,7
Karmana t.	3 587	16,1	3 002	15,0
Nurota t.	1 488	6,7	1 346	6,8
Tomdi t.	555	2,5	593	3,0
Uchquduq t.	905	4,1	808	4,1
Xatirchi t.	2 623	11,8	2 344	11,7

Faoliyat ko‘rsatayotgan jami 19 965 ta kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining 8 222 tasi (41,2 %) – savdoda, 3 144 tasi (15,7 %) - sanoatda, 2 494 tasi (12,5 %) - qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 1 414 tasi (7,1 %) - qurilishda, 1 276 tasi (6,4 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida, 767 tasi (3,8 %) - tashish va saqlashda, 292 tasi (1,5 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, 267 tasi (1,3 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2 089 tasi (10,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keldi.

Ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 1- oktabr holatiga ko‘ra) birlikda



2023- yil 1- oktabr holatiga Navoiy shahrida jami ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining umumiy sonida faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 5,1 foizni (1 321 ta), Karmana tumanda 4,5 foizni (1 173 ta), Navbahor 2,6 foizni (673 ta), Xatirchi 2,4 foizni (611 ta), Konimex 0,7 foizni (193 ta) va Tomdi tumanida 0,6 foizni (145 ta) tashkil qilgan.

Hisobot davrida 1 263 ta kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining faoliyati tugatilgan bo‘lib, ulardan 502 tasi savdo (39,7 %), 216 tasi sanoat (17,1 %), 74 tasi qurilish (5,9 %) hamda 143 tasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (11,3 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorij kapital ishtirokidagi korxonalar soni 199 tani tashkil etdi. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 99 tasi qo‘shma korxonalar, 100 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- oktabr holatiga,birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda

	Jami	*shundan:*	
		Qo‘shma korxona	*Xorijiy korxona*
Jami	**199**	**99**	**100**
Navoiy sh.	54	35	19
Zarafshon sh.	12	5	7
G‘ozg‘on sh.	5	3	2
Konimex t.	9	5	4
Qiziltepa t.	15	7	8
Navbahor t.	8	3	5

davomi

	Jami	shundan:	
		Qo‘shma korxona	Xorijiy korxona
Karmana t.	58	22	36
Nurota t.	14	8	6
Tomdi t.	8	6	2
Uchquduq t.	5	2	3
Xatirchi t.	11	3	8

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahri 54 ta (27,1 %) va Karmana 58 ta (29,1 %) tumani hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar G‘ozg‘on shahriga 5 ta (2,5 %), Uchquduq tumaniga 5 ta (2,5 %), Tomdi tumaniga 8 ta (4,0 %), Konimex tumaniga 9 ta (4,5 %) va Navbahor tumaniga 8 tadan (4,0 %) to‘g‘ri keldi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar bo‘yicha soni va ulushi *(2023- yil 1- oktabr holatiga)*

	birlik	jamiga nisbatan, % da
Jami	**199**	**100,0**
Navoiy sh.	54	27,1
Zarafshon sh.	12	6,0
G‘ozg‘on sh.	5	2,5
Konimex t.	9	4,5
Qiziltepa t.	15	7,6
Navbahor t.	8	4,0
Karmana t.	58	29,2
Nurota t.	14	7,0
Tomdi t.	8	4,0
Uchquduq t.	5	2,5
Xatirchi t.	11	5,6

Faoliyat ko‘rsatayotgan 199 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha olib qaraydigan bo‘lsak, 110 tasi (55,3 %) sanoat, 37 tasi (18,6 %) savdo, 16 tasi (8,0 %) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 13 tasi (6,5 %) qurilishda, 4 tasi (2,0 %) tashish va saqlash, 4 tasi (2,0 %) sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 2 tasi (1,0 %) axborot va aloqa, 2 tasi (1,0 %) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda, 11 tasi (5,6 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi
(2023- yil 1- oktabr holatiga)

	birlik	*Jamiga nisbatan, % da*
Jami	**199**	**100,0**
shu jumladan:		
Sanoat	110	55,3
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	16	8,0
qurilish	13	6,5
savdo	37	18,6
tashish va saqlash	4	2,0
Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	4	2,0
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2	1,0
Axborot va aloqa	2	1,0
boshqa turlari	11	5,6

2023- yil yanvar- sentabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalarning soni 28 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi 6 ta, Avstraliya 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 4 ta, Eron Islom Respublikasi 3 ta, Hindiston Respublikasi, Qozog`iston Respublikasi 2 tadan, Birlashgan Arab Amirligi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Janubiy Koreya Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi hamda Niderlandiya Qirolligiga 1 tadan to‘g‘ri keladi.

28 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahri (12 ta), Karmana tumani (6 ta) tuman, Nurota tumani (3 ta), Xatirchi tumani va G‘ozg‘on shahri (2 ta) hamda Konimex, Navbahor, Uchquduq tumanlariga (1 ta) dan to‘g‘ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi

	birlik	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**28**	**100,0**
Navoiy sh.	12	42,9
Zarafshon sh.	-	-
G‘ozg‘on sh.	2	7,1
Konimex t.	1	3,6
Qiziltepa t.	-	-
Navbahor t.	1	3,6
Karmana t.	6	21,4
Nurota t.	3	10,7
Tomdi t.	-	-
Uchquduq t.	1	3,6
Xatirchi t.	2	7,1

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 14 ta, savdoda 8 ta, qishloq xo‘jaligida 3 ta, tashish saqlash 1 ta, sog‘liqni saqlash va ishtimoiy xizmatda 1 ta va boshqalar 1 tani tashkil qilmoqda.

2023- yil 1- oktabr holatiga 99 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalar hisoblanib, shundan Navoiy shahri (42 ta), Karmana tumani (26 ta), Nurota (9 ta), Uchquduq tumanida (5 ta), Zarafshon shahri, Navbahor, Xatirchi tumanida (4 tadan), Qiziltepa, Konimex tumanlarida (2 tadan) va Tomdi tumani (1 ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- oktabr holatiga 4 508 tani tashkil etib, ulardan 3 500 tasi yoki 79,8 foizi faoliyat yuritmoqda.

2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 16,0 foizga yoki 667 taga kamaydi.